

AQUAPANEL®

SkyLite sement plitasi

Shift konstruksiyalari uchun yengil
va ishonchli sement plita.
Ichki va tashqi qo'llash



Tavsif

AQUAPANEL® SkyLite sement plitasi - bu bino ichkarisi va tashqarisidagi osma shift konstruksiyalarida ishlatish uchun mo'ljallangan yengil va mustahkam plita.

Material portlandsement va yengil mineral to'ldiruvchi asosidagi o'zak qatlamlardan tashkil topgan bo'lib, plita yuzasi (old va orqasi) shishato'r bilan o'zaklangan. Plitaning ko'ndalang qirralari qo'shimcha mustahkamlangan (EasyEdge® texnologiyasi).

AQUAPANEL® SkyLite sement plitasi 100 % namga chidamli, shuningdek, po'panak va mog'or paydo bolishiga chidamli.

Qo'llanishi

AQUAPANEL® SkyLite sement plitasi foydalanishi nam va ho'l rejimli xonalarda osma shift konstruksiyalarida, shuningdek, bino tashqarisida sofitlar va shift tizimlari qurishda; arkadalar va yer osti o'tish yo'llari, tunnellar va yer osti yo'laklar qurilishida qo'llaniladi.

Plita yengilligi tufayli (10,5 kg/m² atrofida) shiftlarni montaj qilishga ideal mos keladi. Bundan tashqari, zarur butlovchi qismlar bilan birgalikda AQUAPANEL® SkyLite bilan quyidagi sifatdagi pardoqlash darajasiga erishishi mumkin: yaxshilangan pardoqlash - bino tashqarisidagi shift yuzasi uchun, yuqori sifatli pardoqlash - bino ichkari qismlari uchun.

Texnik xususiyatlari

Ko'rsatkich nomi	Ma'nosi
Uzunligi (mm)	900
Kengligi (mm)	1200
Qalinligi (mm)	8,0
Min. egish radiusi (m)	1
Og'irligi (kg/m²)	taxminan 10,5
Zichligi (kg/m³)	taxminan 1200
Egilgandagi mustahkamlik chegarasi (Mpa)	taxminan 10,9
pH qiymati	12
Issiqlik o'tkazuvchanligi (Wt/m.K)	0,36
Issiqlik kengayishi (10-6K-1)	7
Bug' o'tkazishga qarshiligi p (-)	40
65%-85% namlikda uzunligining o'zgarishi (mm/m)	0,38
65%-85% namlikda qalinligining o'zgarishi (%)	0,3
GOST 30244-94 bo'yicha yong'inga xavflilik sinfi (yonuvchanlik guruhi)	Hf (Yonmaydigan materiallar)

Xususiyatlari

- Ichki va tashqi qo'llash uchun bir plita;
- Plita og'irligi yengilligi tufayli shift konstruksiyalari oson montaj qilinadi;
- Quruq holatida 1 m radiusda egiladi;
- 100% namga chidamli;
- Po'panak va zamburug' paydo bo'lishiga chidamli;
- Ekologik toza va xavfsiz qurilish material;
- Yengil, zarbga bardoshli, uzoq xizmat qiluvchi material;
- Plitaga ishlov berish oson - maxsus asbob ishlatish talab qilinmaydi.

Tashish va saqlash

Ochiq transport vositalarida tashishda mahsulot namlikdan himoyalangan bo'lishi zarur. Plitalarni faqat vertikal holatda aravacha yoki taglik bilan sanchqili yuk ko'taruvchi yordamida boshqa joyga olish mumkin. Plitalarni tushirishda burchak va qirralari shikastlanmaganiga ishonch hosil qilish lozim. Plitani qurilish maydonchasida montajgacha saqlashda namgarchilik va ob-havo sharoitlaridan himoyalash zarur. Montajdan oldin nam plitalarning ikkala tomonini quritish kerak. Bu holda plitalar taglik yoki qistirmaga gorizontol holatda yotqiziladi. Tayanch yuza plita vaznini ko'tarishi kerak. AQUAPANEL® SkyLite plitalari yuklangan bir taglikning polga beradigan yuklanishi 1008-1049 kg ni tashkil etadi. AQUAPANEL® SkyLite plitalarini 0 dan past harorat sharoitida saqlaganda ishlatishdan oldin tagligi bilan isitiladigan xonaga olish kerak. Plitani montaj qilishdan oldin iqlimga moslashtirilishi kerak. Material va atrof-muhit harorati +5°C dan past bo'lmasligi kerak.

Ishlov berish va o'rnatish

AQUAPANEL® SkyLite plitalari karkasning yuk ko'taruvchi profililariga (brusoklar) nisbatan bo'ylama *yoki ko'ndalang yo'nalishda mahkamlanadi. Plitalarni mahkamlashda burama mix sarfi 1 m² ga 25 donadan to'g'ri keladi. Plitalar orasida 3-4 mm tirqish qoldiriladi. Plitalarning ko'ndalang choklari siljirilgan bo'lishi zarur. Plyus shaklidagi chok chiqarish mumkin emas. Plitalar mahkamlangandan so'ng shpaklevka aralashmasi va eni 10 mm bo'lgan o'zaklovchi tasma (serpyanka) yordamida yamalladi.

Eni 10 sm bo'lgan o'zaklovchi tasma chok o'rtasidan yangi surtilgan aralashmaga yopishtiriladi. Bundan tashqari, burama mix mahkamlangan joylar shpaklevkalanadi. Plitalarni o'zi kesuvchi vintlar bilan havoning harorati 0 dan past bo'lganda mexanik mahkamlasa bo'ladi. Choklarni o'zaklash va shpaklevkalash kabi o'rnatish bilan bog'liq "ho'l" jarayonlar havo harorati +5°C dan past bo'lmaganda amalga oshiriladi. Berkitmani yakuniy pardoza tayyorlash bo'yicha tavsiyalar bilan siz risolada va www.knauf.uz saytida tanishishingiz mumkin. Osma shiftlarning konstruksiyasi tashqarida qo'llanganda mustahkam va turg'un bo'lishi kerak. Binoning ham tashqarisida, ham ichkarisida qo'llanadigan konstruksiya asoslarining barcha elementlari korroziyadan yetarlicha himoya bilan ta'minlanishi kerak. Yanada batafsil ma'lumot uchun, marhamat qilib, bizning tizim bo'yicha hujjatlarimiz bilan tanishing.

*faqat bino ichkarisida

Plitalar / tagliklar	80 dona.	900x1200 mm
Yuza / pallet	86,4 m ²	900x1200 mm

O'rnatish vaqti

Osma shift konstruksiyasini (AQUAPANEL® SkyLite sement plitasi, burama mixlar, choklarni yamash aralashmasi, choklarni o'zaklash tasma-sini ham o'z ichiga oladi) o'rnatish vaqti 18 daq./m² ni tashkil etadi.

Manzil:

Toshkent sh, Shaxrisabz q, 2, Tower 2, 5 qavat

Kontaktlar:

+998 78 150 11 59

+998 78 150 11 60

+998 78 150 11 61

KNAUF material va konstruksiyalarning asosiy parametrlariga ta'sir qilmaydigan o'zgarishlarni kiritish huquqini o'zida saqlab qoladi. Barcha texnik xususiyatlar KNAUF firmasi tavsiya qilgan materiallardan foydalangan holatdagina ta'minlanadi. Materiallarni qo'llashga doir barcha ko'rsatmalar muayyan hisob-kitobga asoslangan bo'lib, ko'rsatilganidan farq qilgan holatda aniqlashtirilishi talab etiladi. Qo'shimcha maslahat uchun KNAUF texnik xizmatiga murojaat qiling.